

KOSTYUM DIZAYNIDA RANG VA MATERIALLAR: PSIXOLOGIYA VA ESTETIK YONDASHUVLAR TAHLILI

Mamaxanova Zebuniso Obidovna

Namangan davlat texnika universiteti “Dizayn” kafedrasi asisenti

Oxundadayeva Hulkarxon Akmalxon qizi

Namangan davlat texnika universiteti talabasi

O'ktamova Guloyim Ulug'bek qizi

Namangan davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: Kostyum materiallari va ularning amaliy-estetik xususiyatlari Shuningdek, materiallarning tanlovi ham personajning ijtimoiy holati, kasbi yoki davri haqida ma'lumot beradi. Dizaynerlarga kostyum yaratishda estetik yondashuvlar va psixologik prinsiplarga e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada kostyum dizaynining asosiy elementlaridan biri bo'lgan ranglar va materiallarning estetik va psixologik ahamiyatini o'rganishga bag'ishlanadi. Ranglarning psixologik ta'siri va dizayndagi roli, zamonaviy moda industriyasi va trendlar, estetik yondashuvlar va kostyum tanlashdagi psixologik omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kostyum dizayni, ranglar psixologiyasi, materiallar, estetik yondashuv, personaj yaratish, psixologik ta'sir, teatr kostyumlari, kino kostyumlari.

Annotation: Costume materials and their practical-aesthetic characteristics. The choice of materials also provides information about the character's social status, profession, or time period. It emphasizes the importance for designers to pay attention to aesthetic approaches and psychological principles when creating costumes. This article is dedicated to the study of the aesthetic and psychological significance of colors and materials, which are one of the key elements of costume design. The psychological impact of colors and their role in design, modern fashion industry trends, aesthetic approaches, and psychological factors in costume selection are analyzed.

Keywords: Costume design, psychology of colors, materials, aesthetic approach, character creation, psychological impact, theater costumes, film costumes.

KIRISH

Kostyum dizaynida rang va materiallar tanlovi nafaqat libosning tashqi ko'rinishini, balki uni kiyuvchi shaxsning hissiy holati va jamoaga ta'sirini ham belgilaydi. Ranglar inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatib, kayfiyat va obrazga oid ma'lumot uzatadi; materiallar esa libosning qulayligi va estetik qimmati bilan bog'liq. Mavzuning dolzarbli shundaki, zamonaviy moda dizaynida ranglar psixologiyasi va matolarning estetik jihatlarini chuqr anglash dizaynerlarga ijodiy yechimlar topishda yordam beradi.

Ranglarning psixologik ta'siri: Psixologlar ta'kidlashicha, kundalik hayotimizda atrofimizdagi ranglar bizning his-tuyg'ularimiz va idrokimizga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [6]. Moda va kiyim dizaynida rang tanlovi yanada muhimroq ma'no kasb etadi – har bir rang inson ongida o'ziga xos kayfiyat va obraz uyg'otadi “Rang”- dizayner qo'lida kuchli vositadir. U his-tuyg'ularni uyg'otish, hikoya qilish va kayfiyatni yaratish qobiliyatiga ega Ranglarning bunday psixologik ta'siri dizaynerlar tomonidan libos yaratayotganda inobatga olinadi. Issiq ranglar (qizil, to'q sariq, sariq) ko'pincha energiya va quvonch bag'ishlasa, sovuq ranglar (ko'k, binafsha, yashil) xotirjamlik va bosiqlik hissini uyg'otadi. Ayniqsa, moda olamida ranglar orqali ma'lum bir kayfiyat yoki mavzuni etkazish odatiy hol: masalan, kecha liboslarda qoramtil yoki to'q tuslar elegans va sirli muhit yaratadi, kunduzgi liboslarda esa och va yorqin ranglar yordamida yengillik va shodlik kayfiyati beriladi. Rang tanlovi bilan shaxsiy xususiyatlar ham bog'liq bo'lishi mumkin – ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, odamlar o'z xarakterlariga mos ranglarni ongsiz ravishda tanlashadi. Masalan, kuzatuvlarga binoan, o'ziga ishonchli va tashabbuskor shaxslar ko'pincha qizg'ish va to'q rangli kiyimlarni yoqtirsa, bosiq va romantik tabiatli kishilar mayin va pastel ranglarga moyillik bildiradilar hayot mamot simvoli quvonch va xafalik ifodasi bo'lib kelgan: u iliqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik, xissini berishi mumkin; [3] bizning xis tuyg'ularimizda rang ta'siri bor e'tibor qilaylik: “qora kun”, “oq ko'ngil”, “yorqin niyatlar”, “qora niyat”, “oq yo'l” - bularning barchasi rangning psixologik vazifasini bildiradi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, rang ma'nolari madaniy kontekstga ham bog'liq.

Masalan, tarixiy O'zbekiston jamiyatida libos rangi orqali ijtimoiy mavqe ifodalangan: boy oilalar xotinlariga ko'k yoki binafsha rangdagi qimmatbaho liboslar kiydirishgan bo'lsa, hunarmand va dehqon xotinlari odatda yashil kiyimda yurishgan [4]. An'anaviy tasavvurlarga ko'ra, juda to'q (qora yoki qo'ng'ir) rangli kiyimlar negadir noxushlik chaqirishi mumkin degan e'tiqod ham bo'lган – shu sabab o'zbeklar tarixan juda to'q rangli liboslarga unchalik moyil bo'lмаганlar. Turli tarixiy davrlarda rang simvolikasiga munosabat turlicha bo'lган, masalan, ko'chmanchilar yorqin to'q ranglarni ma'qul ko'rjan bo'lsa, o'tiroq xalqlar ochroq murakkab ranglarni yoqtirgan. Rang ma'lum ijtimoiy tabaqalanishni ifoda etgan. Masalan qadimiy Rimda qirmizi to'ga plash kiyishga imperatorgina haqli bo'lган. Diniy mansublik qaysi rangda kiyinishni belgilab berardi.

Masalan ingliz puritanlari qora kiyinsalar, katoliklar aksincha olachipor kostyum kiyardilar. Urushlar, epidemiya, ocharchilik odmi kiyimlar tarqalishiga sabab bo'lsa, ulardan keyin yorqin rangli kiyinish an'ana tusiga kirar edi. Rang xamma vaqtarda jins-yosh farqini bildiradigan vosita bo'lган. Bolalar kiyimi nozikroq tusli bo'ladi, o'smirlar kontrast ranglarni ma'qulroq ko'radi, katta yoshlilarga chuqurroq rang tuslari yoqadi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimidan yorqinroq va ko'p rangliroq bo'ladi. Kostyum dizayni faqat kiyim yaratish emas, balki personajning xarakterini,

voqeanning atmosferasini va tomoshabin bilan aloqani ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ranglar va materiallar bu jarayonda muhim vositalardan biridir. Ranglar va materiallar orqali xarakterlarni chuqurroq tushunishga yordam berish, voqealarni yoki hissiyotlarni tasvirlash va tomoshabinlarning reaktsiyalarini keltirib chiqarish mumkin. Aytgancha, ranglar qadimgi Misr, Hindiston va Xitoyda davolash usuli sifatida ham ishlatilgan. Misol uchun, xitoylik shifokorlar oshqozon kasalliklarini davolash uchun quyoshli sariq rangdan foydalanganlar va qizil sharflar qizil olov bilan kasallangan bemorlarga yordam berish uchun ishlatilgan. Hatto g'arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan Abu Ali ibn Sino ham, qon ketishi bilan og'rigan bemorlarga qizil rangga qarashni taqiqlagan, aksincha, ko'kni tavsiya qilgan. Bu ularni bir zumda tinchlantirgan. Psixologlarning ta'kidlashicha, rang tili universaldir va yashash joyi, dini va temperament turidan qat'i nazar, barcha odamlarga teng ta'sir qiladi.

Kostyum dizaynida ranglar yordamida personajlarning ruhiy holati, ijtimoiy statusi, xarakteri va evolyutsiyasi qanday aks ettiriladi? Masalan, teatr va kino asarlarida asosiy yovuz personajlar uchun qora yoki qizil ranglar, asosiy qahramonlar uchun esa ochiq va tinch ranglar ishlatilishi mumkin. Ranglar turli madaniyatlarda turlicha ta'sir qiladi. Masalan, Yaponiyada oq rang o'limni bildirsa, G'arb madaniyatida u poklikni anglatadi.

To'g'ri kostyum va jozibali ranglar nafaqat odamlarga yoqimli xis tuyg'ularni keltiribgina qolmay, balki egasiga ishonch va quvonch bag'ishlaydi. Kostyum rang, shakl va materialning uchta asosiy omilidan iborat, ammo rang tomoshabinlar nazariga tushadigan birinchi narsa, undan keyin uslub, naqsh va nihoyat material va hunarmandchilik (1-rasm). Aftidan ko'p sonli omillar orasida rang omili jonli va ko'zni qamashtiruvchi bo'lib, hal qiluvchi o'rinni egallaydi.



1-rasm. Liboslarda rang kombinatsiyasi

Xarakter obrazini loyihalash - bu nazariy tizimning to'liq to'plamini o'z ichiga olgan chuqur bilim. "Rang va uslub" ikkita asosiy omil bilan belgilanadi. Insonning soch rangi va terining rangi o'rtasidagi munosabat inson uchun umumiy rang berish qoidasini belgilaydi, tana chizig'i esa kiyinishdagi "shakl" qoidasini, ya'ni "shaxsiy uslub" ni belgilaydi. Insonga mos "rang va uslub" topilar ekan, mukammal umumiy tasvirni osongina yaratish mumkin. Kostyum rangining estetik tuyg'usini yaratishni kostyum materialidan ajratib bo'lmaydi, turli xil kostyum ranglari matoga bog'langan.

Turli matolardan tikilgan va har xil rangdagi kostyumlar inson tanasiga kiydirilgach, kostyum ranglari darxol tekis shakldan uch o'lchamli shaklga aylanadi.

Aksessuarlar zargarlik buyumlari va shlyapalardagi marjonlarni, sirg'alarmi va uzuklar, poyabzal va belbog'lar kabi kostyum bezaklarini anglatadi. Aksessuarlar kostyuming umumiyligi ta'sirida qo'shimcha rol o'ynashi mumkin, ammo shuni ta'kidlash kerakki, kostyumi moslashtirishda ortiqcha aksessuarlardan qochish kerak. Umumiyligi xarakterli tasvirning tashqi ko'rinishi dizaynidagi aksessuarlar soni 5 tadan oshmasligi kerak, unda bezak buyumlari soni 3 tadan oshmasligi kerak, aks holda ikkinchi tizim effekti paydo bo'ladi.



2-rasm. Uch xil rangdan iborat eskiz namunasi

Rang nazariyasi kostyumlar dizaynidagi muhim vosita bo'lib, vizual jozibali va mazmunli kiyimlarni yaratishga yordam beradi. Dizaynerlar his-tuyg'ularni uyg'otish va kostyumlar orqali hikoya qilish uchun rang g'ildiragi, turli rang sxemalari va rang va to'yinganlik kabi xususiyatlardan foydalanadilar (2-rasm). Kulrang rangli ustki kiyimlar ko'proq jiddiylik va barqarorlikni ifodalaydi. Bu rang neytral va jozibador bo'lishi mumkin, biroq u ko'pincha past kayfiyat yoki ehtiyyotkorlikni tasvirlaydi. Kulrang kiyimlar insonni professional va tashkilotli ko'rsatadi. Estetik xususiyatlari: Kulrang rangidagi ustki kiyim oddiy, soddaligi bilan ajralib turadi. Bu kiyim, ayniqsa, ofis yoki biznes uchrashuvlarida juda mos keladi. U shuningdek, ko'p rangli kombinatsiyalarni oson qabul qiladi va kiyimni boshqa aksessuarlar bilan oson uyg'unlashtirish imkonini beradi. Misol: Kulrang rangli ustki kiyim qattiq va toza chiziqlar bilan dizayn qilingan bo'lishi mumkin, bu esa sizning professional va jiddiy imidjingizni mustahkamlaydi. Bu rang qishda yoki sovuq ob-havoda yaxshi ko'rindi.

Qizil rangli ustki kiyim ehtiros, energiya, kuch va jozibadorlikni ifodalaydi. Bu rang kuchli ta'sirga ega bo'lib, odamlarning e'tiborini tortadi va diqqatni jalb qiladi. Shuningdek, qizil rang xavf va aggressivlikni ham bildirishi mumkin. Qizil ustki kiyim

har doim diqqatingizni o'ziga tortadi, shuning uchun u odatda maxsus voqealar, ziyoftlar yoki guruh ichida diqqatni jalb qilishni xohlaydigan holatlar uchun idealdir. Bu kiyim yorqin va jozibali ko'rinishni ta'minlaydi. Qizil ustki kiyim, masalan, plash yoki jaket, kengaytirilgan belni yoki bog'ichni ta'kidlab ko'rsatuvchi dizaynlar bilan o'zgacha ko'rinish yaratadi. Bu kiyim ayniqsa kechki tadbirlarda yoki romantik uchrashuvlarda ko'proq qo'llaniladi.

Ko'k rangli kiyim shaxsga ishonch va professionalizmni bildiradi. Ko'k rangli ustki kiyim jiddiy va yuqori darajadagi ko'rinish yaratadi, lekin bitta zamonaviy va sof ta'sir bilan ham boyitilishi mumkin. Ko'k rang, ayniqsa, biznes kiyimlari uchun juda mos keladi va uning rang harorati ishonchli va ochiq muhitni yaratishga yordam beradi. Ko'k rangli ustki kiyim, masalan, qora yoki oq rangdagi aksessuarlar bilan yaxshi uyg'unlashadi. Ushbu kiyim professional va ehtiyyotkor ko'rinish yaratadi, va ko'pincha ofisda yoki ish uchrashuvlarida ishlataladi.

Materialarning amaliy va estetik jihatlari: Kiyim yaratuvchiligidagi mato (material) tanlovi libosning nafis ko'rinishi bilan bir qatorda, uning funksionalligi va qulayligini ham belgilaydi. Amaliy jihat deganda, avvalo matoning jismoni xususiyatlari – mustahkamligi, havoni o'tkazishi, tanaga yoqimliligi va parvarishlanish qulayligi tushuniladi. Masalan, yozning jaziramasida paxta yoki adres kabi tabiiy tolali, havodor matolar tananing nafas olishini ta'minlab, salqinlik baxsh etadi. Aksincha, sun'iy tolali sintetik matolar (masalan, poliester) issiqlikni ushlab qolib, noqulay issiqlik yoki terlatish effekti berishi mumkin. Shuning uchun dizaynerlar faslga va vaziyatga mos materialni tanlab, libosning foydalanish maqsadiga muvofiq harakat qilishadi (kundalik kiyimda bardoshli va qulay matolar, kechki liboslarda nafis va dekorativ matolar va hokazo). Ranglar va materiallar orasidagi uyg'unlik kostyum dizaynida juda muhim ahamiyatga ega. Bu ikki omil birgalikda nafaqat estetik jihatdan go'zal ko'rinish yaratadi, balki personajni yanada jonlantiradi va uning xarakterini yanada chuqurroq aks ettiradi. Ranglar va materialarning o'zaro ta'siri orqali kostyumni kutilgan hissiyot va ma'no bilan to'ldirish mumkin. Materiallar esa rangning ta'sirini kuchaytirishi yoki uning ta'sirini kamaytirishi mumkin. Masalan:

❖ Ipak yoki atlas materiallar o'zining yumshoq, porloq yuzasi bilan nafaqat ranglarni yorqinroq ko'rsatadi, balki yuqori ijtimoiy statusdagi personajni yaratadi. Bunday materiallar go'zallik va zamonaviylikni ifodalaydi.

❖ Jensi(denim) yoki yengil matolar esa, oddiy va tabiiy ko'rinish yaratish orqali personajni realist, oddiy yoki ishchi tabaqaga tegishli qilish mumkin.

❖ Mo'yna yoki teri materialari esa kuchli va tajovuzkor obrazni yaratishda yordam beradi. Ular ko'pincha qattiqlik va aggressivlikni aks ettiradi.

O'zbek dizaynerlik an'analarida mato tanlovi alohida o'rin tutadi. O'zbekiston boy to'qimachilik merosiga ega yurt sifatida qadimdan ipak, paxta va jun matolar ishlab chiqarilgan. Milliy liboslarda qo'llanilgan atlas, adres, beqasam, shoyi kabi

matolar nafaqat go'zal rang-barangligi, balki tabiiy tolalardan tayyorlangani uchun ham qadrlanadi. Bugungi dizaynda ham ushbu matolar estetik jihatdan noyob deb ko'rildi – atlasning jilosi va ikat uslubidagi naqshlari zamonaviy liboslarga milliy ruh bag'ishlasa, paxtaning tabiiy toqimalari ekologik tozalik va soddalik bilan uyg'unlashadi. Xulosa qilib aytganda, materiallarning to'g'ri tanlanishi dizaynda funksional praktikalik va estetik go'zallikni birdek ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy kostyum dizayneri matoning amaliy va estetik xususiyatlarini chuqur anglab, maqsadga muvofiq tarzda uyg'unlashtirgandagina libos nafosat va qulaylik timsoliga aylana oladi. Teatr va kino kostyumlarida materiallar orqali xarakterlarni yaratishda qattiq va murakkab materiallar orqali yovuz yoki mustahkam xarakterlar, yumshoq va oson moslashadigan materiallar orqali esa mehribon va samimiy xarakterlar yaratish mumkin. Masalan, ranglar va materiallar birlashtirilganda vizual qiziqish yaratishi va kostyuming umumi kompozitsiyasiga xizmat qilishi kerak. Dizaynerning badiiy ta'siri va vizual izlanishlar yordamida personajning maqsadi va uning hissiyotlari qanday ko'rsatilishi mumkin.

Mashhur dizaynerlarning ranglar va materiallar bo'yicha yondashuvlari moda dunyosining har bir mavsumida o'zgarib turadi. Ularning yondashuvlari ko'pincha yangi texnologiyalar, madaniy va ijtimoiy tendensiyalar, shuningdek, tarixiy va ekologik ta'sirlarga asoslanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kostyum dizaynida rang va materiallar uyg'unligi nafaqat estetik go'zallik, balki kuchli psixologik ta'sir vositasidir. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ranglar inson kayfiyati va obrazini shakllantiruvchi muhim omil bo'lib, dizaynda ongli ravishda qo'llangan rang palitrasи libosning emotsiyonal "ohang"ini belgilaydi. Materiallar esa libosning fakturaviy va funksional asosini tashkil etib, uning qanchalik qulay va jozibador qabul qilinishini ta'minlaydi. Har bir inson o'z didi va ichki tuyg'usiga qulоq solib, kiyim tanlaganida eng muvaffaqiyatli obraz yaratiladi.

Zero, moda bu – o'zlikni ifoda etish san'ati, unda ranglar palitrasи va materiallar go'yo bo'yoq va xom-ashyoday ishlatiladi; insonning o'zi esa bu san'atning bastakori va asaridir. bugungi globallashgan jamiyatda moda faqat kiyim emas, balki madaniyatlararo muloqot va o'zlikni anglatuvchi vositaga aylangan.

Ranglar va materiallar esa bu vositaning "so'zlari" va "ohangi"dir. Shunday ekan, dizaynerlar, san'atshunoslar va psixologlar uchun ushbu mavzuni chuqur tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. X.X.KAMILOVA, N.A.ISAXOJAYEVA, K.R.FUZAILOVA
KOSTYUM KREATIV GRAFIKASI.
2. Xасанбоева Г.К. Костюм дизайни. Т.: ТТЕСИ, 2013.

3. R.Xudayberganov. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. T.: Cho‘lpon nashriyoti, 2019.
4. F.Z.Ataxanova. Dizayn- loyihalash. Toshkent-2018
5. Elle Uzbekistan jurnali, “Ranglar psixologiyasi” maqolasi
6. <https://www.pinterest.com>